

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

ERNEST XEMINGUEY IJODIGA BIR NAZAR

Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi, Najmiddinova Sarvara Samariddinovna

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'ona mintaqaaviy filialining Qo'g'irchoq teatr aktyorligi 3-kur talabalari

Annotatsiya: Jahon adabiyotining yetuk yozuvchisi, bir qancha romanlarning muallifi bo'lgan Ernest Xeminguey asarlarida, odamlar o'z erkiga ega ekanligi haqida bir qancha fikrlarni ko'rishingiz mumkin. Shuningdek, ijodkor insoning qadr-qimmati hamma narsadan ustunligini ifoda etgan. Ushbu maqolada, uning asarlarini mazmun mohiyati bilan birgalikda ijodiy yuksalish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Ijod, roman, ozodlik, Ernest Xeminguey, erk, adabiyot.

Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi..

(Ernest Xeminguey)

Mashhur amerikalik yozuvchi, insoniylik asarlarining muallifi Ernest Xeminguey umri davommida bir qancha qiyinchiliklarga dosh berib erkinlik uchun kurashgan shaxs. Uning hikoyalari, romanlarida tushkunlikni ko'rishimiz mumkin, ammo, shu bilan bir qatorda ozodlik yo'li uchun yozilgan asarlari orqali oddiy xalqning tashvishlari yoritib berilgan. Uning ilk hikoyalari – "Bizning zamonda", "Fiesta", "Quyosh chiqadi", deb nomlangan. Hijodkor 2-jahon urushida o'sha vaqtning ijtimoiy holatini "Xavfli yoz", "Okeandagi orollar" nomli romanlarida yoritib bergen. Bugungi kunda xalqimiz muhabbatini qozongan, o'zbek tiliga tarjima qilingan "Chol va dengiz", "Alvido, quroq" asarlari orqali yozuvchini ko'plab insonlar taniydi. Ushbu asarlar ijodkorga yuksak natija bilan omad ham olib kelgan. Jahonda "Chol va dengiz" asariga oid ko'plab iqtiboslar mayjud. Quyida esa ushbu iqtiboslar keltirilgan.

- Bir narsa ikki marta hech qachon qaytarilmaydi...
- Men uchun qarilikning o'zi qo'ng'iroq soat. Chollar nega juda barvaqt turisharkan-a? Nahotki, buni qolgan umrlaridan bir kunini bo'lsa ham cho'zish niyatida qilishsa?— Bilmadim. Faqat shuni bilamanki, yoshlar qattiq va ko'p uplashadi...
- Men uchun qarilikning o'zi qo'ng'iroq soat. Chollar nega juda barvaqt turisharkan-a? Nahotki, buni qolgan umrlaridan bir kunini bo'lsa ham cho'zish niyatida qilishsa?— Bilmadim. Faqat shuni bilamanki, yoshlar qattiq va ko'p uplashadi...

Xeminguey asarlarida dastlabki jurnalistik kuzatuv o'rnini tahliliy, qiyosiy mulohaza va mushohadalar egallaydi. U har qanday urushni qoralaydi, shu tufayli insoniyat aziyat chekayotganiga e'tibor qaratadi. Inson huquqlari yo'lida, ozodlik kurashida yolg'iz maydonga tushishning halokatlari oqibatlarga olib kelishini oddiy kishilar obrazi orqali ifodalaydi. Asarlari orasida "Chol va dengiz" qissasi Xemingueyga katta shuhrat keltirdi. Yozuvchi asos solgan XX asrning o'ziga xos bo'lgan qat'iy xolislikka asoslangan uslubi keyinchalik Amerika yozuvchilari tomonidan yangi yo'nalish sifatida qaraldi va qo'llanildi. "Chol va dengiz" asari haqida Ernest Heminguey mashhur "Chol va dengiz" asarini 1952-yilda Bagama orollarida 51 yoshida yozgan edi. Kasallik yozuvchi hayotiga xavf solib turganda ham ushbu asari orqali betakror obrazlarni yaratdi. Asar ikki oy ichida davomida tugallangan

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON,2024

edi. Qahramonlar oddiy obrazlar orqali tasvirlangan bo‘lsa ham, zamirida hayot haqiqatining chizgilar bor. Demak, asar Xemingueyning umri oxirda yozilgan mashhur asari. Unda kubalik baliqchi, keksa Santyagoning hayoti haqida hikoya qilinadi. Shuni aytish kerakki, “Chol va dengiz” asarida, avvalo, inson hamisha suyanadigan ishonch tuyg‘usi va albatta, umid haqida so‘z boradi. Asar bosh qahramonida ham tajribasiga suyanib yashayotgan, ishonchini yo‘qotib qo‘ymaslikka harakat qilayotgan obrazni ko‘rishimiz mumkin.

Asarning syujetiga biroz to‘xtalsak. Santyago ismli chol Kubadagi kichik baliqchi qishlog‘ida yashaydi. Va baliqchilik bilan shug‘ullanardi. U 84 kundan buyon dengizda qolib ketgan, ammo biror o‘ljaga ega bo‘limgandi. Manolin – chol bilan birga baliq ovlagan bola. Ota-onasi cholni omadsiz sanagani uchun unga boshqa qayiqqa chiqishni buyurgan edi. Ammo bola Santyagoni juda yaxshi ko‘rardi. Xullas, bu gal chol omadiga ishonib dengizga yo‘l oladi. Dastlab, qahramonimiz kichkina tunets balig‘ini ushlaydi. So‘ng esa juda katta baliq qarmoqqa ilinadi. Ulkan baliq qayiqni uzoqqa tortib keta boshlaydi. Chol uning yonida Manolin yo‘qligidan xafa bo‘ladi, bunday paytlarda bolaning yordami juda asqotardi. Shunday qilib, chol baliq bilan uzoq “jang” qiladi. Umid va ishonch uni bir zumga bo‘lsa-da tark etmaydi. Santyagoga tashqi muvaffaqiyat yetishmasa ham, uning ishonch va umidi uni oldinga boshlayveradi.¹

Ernest Xemingueyning yana bir mashhur "To‘qchilik va yo‘qchilik" asarida odamlar hayotidagi qiyinchiliklar va erkinlik uchun kurashlar ifoda ettilgan. Asarda inson huquqlari muhimligi va qadr qimmati haqida so‘z boradi. Ko‘plab real voqealarga asoslangan. Asar personajlari orqali yovuz jinoyatchiliklar ham yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, Ernest Xeminguey asarlari insonlarning ishonchini ruhlantirib boraveradi.

Uning asarlarida yuqori yuksaklikga ega qadr-qimmat tushunchasi o‘z hayoti uchun kurashish kerakligini, hayotga muhabbat bilan hammasini yengib o‘ta olish tuyg‘usini baxsh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ernest Xeminguey. Chol va Dengiz. Toshkent-1986
2. Ernest Xeminguey. To‘qchilik va yo‘qchilik. Toshkent-2023

Foydalanilgan web-saytlar:

1. Daryo.uz
2. Zyouz.uz

¹ Daryo.uz